



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI MODDALARIDA QO'LLANILGAN BA'ZI SO'ZLARNING LEKSIK MA'NOLARI

O'sarboyeva Ruxsora Rustam qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarida foydalanilgan ba'zi so'zlarning leksik ma'nolarining tahlili keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, modda, senzura, suverenitet, referendum, spiker, daxlsizlik, ombudsman, votum, ratifikatsiya qilmoq, leksikologiya, lug'atlar.

Jamiyatimizda qonun ustivorligini ta'minlash fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu burch va huquqlarimiz dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud bo'lganidek, Respublikamizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyamizda belgilab berilgan.

“Hayotimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib kelayotganini hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz”¹.

Shu o'rinda barchamizda “Konstitutsiya” so'zi va unda keltirilgan moddalarda ishtirok etgan ba'zi so'zlarning lug'aviy ma'nosi, etimologiyasi qanday degan savol tug'iladi. Quyida ularni birinma-ketin izohlab o'tamiz.

Konstitutsiya² – lotincha, “constitution”, belgilash, qaror qilish, tayinlash, qonunlashtirish. Davlatning yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonuni; barcha joriy qonunlar asosi.

Yana Konstitutsiyaning ko'pgina o'rnida, xususan, 27-94-95-104-moddalarida “daxlsizlik” so'zi ishtirok etadi. Quyida uning aynan qanday ma'no bildirishini tahlil qilamiz.

Daxlsizlik³ – 1. Biron-bir ishga daxli aloqasi yo'qlik, taalluqli emaslik.

2. Har qanday xavf yoki tajovuzdan himoya etilganlik.

Konstitutsiyaning 98- moddasida “O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston

¹ Shavkat Mirziyoyev. 2021 yil 8-dekabr Konstitutsiya bayrami munosabati bilan aytgan tabrigidan.

² N. M. Mahmudov. “O'zbek tilining imlo lug'ati”. 401-bet

³ savodxon.uz saytidan



Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli” deyilgan. Bu joyda “ombudsman” so‘zini ko‘rishimiz mumkin.

Ombudsman⁴ – shvedcha, biron kishi manfaatlarining vakili. Turli xil ma‘muriy organlar, shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalar faoliyatining qonuniyligi, ularning fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylangan (tayinlangan) mansabdor shaxs.

Yana Konstitutsiyaning 133-moddasida shunday yozilgan: “ O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi”. Bu o‘rinda “ratifikatsiya” so‘zining ma‘nosiga to‘xtalamiz.

Ratifikatsiya⁵ – lotincha, “ratificatio” – hal qilingan, tasdiqlangan; “facere” – qilmoq, bajarmoq.

1. Xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning oliy davlat hokimiyati organi tomonidan tasdiqlanishi (ayni mamlakatlarda qonuniy kuchga kiritilishi).

2. Ba’zi mamlakatlarda (masalan AQSHda) konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlarni tasdiqlashning maxsus tartibi.

“Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovozigacha — referendumga qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasida referendum o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi”. Ushbu 9-moddada ishtirok etgan “referendum” so‘zining izohi bilan tanishamiz.

Referendum⁶ – lotincha, xabar berilishi, ma‘lum qilinishi zarur bo‘lgan narsa. Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalalar bo‘yicha o‘tkaziladigan va ba‘zan qonunlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qildigan umumxalq so‘rovi, ovoz berish yo‘li bilan xalq fikrini aniqlash.

Konstitutsiyamizning 82- moddasida “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq

⁴ N. M. Mahmudov. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. 122-bet

⁵ N. M. Mahmudov. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. 356-bet

⁶ N. M. Mahmudov. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. 380-bet



javobgarlikka sabab bo‘ladi”, - deya yozilgan. Ushbu moddadan “senzura” so‘zining tahlilini quyida yozamiz.

Senzura⁷ – lotincha, “censura” — jiddiy muhokama, shafqatsiz tanqid. Bosmadan chiqadigan mahsulotlar, ularning chop etilishi, tarqatilishi ustidan, shuningdek, sahna asarlari, radio-eshittirishlar va televizion ko‘rsatuvlar, ba’zida esa shaxsiy yozishmalarning mazmuni va ijrosi ustidan rasmiy hokimiyat organlarining nazorat o‘rnatilishi.

Konstitutsiyaning 94-96-100-moddalarida “Spiker” so‘zi ishtirok etgan. Bu so‘zning leksik ma’nosi quyidagicha:

Spiker⁸ – inglizcha, “speaker – so‘zlovchi, notiq.

1. Buyuk Britaniyada umum palatasining raisi.
2. Bir qator mamlakatlarda parlamentlarida parlament raisi yoki palata.

Davlatimiz Konstitutsiyasining muqaddimasi va 70-85-109-152-moddalarida “suverenitet” so‘zi takrorlanadi. Quyida bu so‘zning leksik ma’nosini bilib olamiz.

Suverenitet⁹ – fransuzcha, “souverainete” – oliy hokimiyat. Xalqaro huquqda: davlatning ichki ishlarni olib borishda va tashqi munosabatlarda boshqa davlatlardan to‘la mustaqilligi.

Yana 119-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi”, - so‘zlari keltirilgan. Votum so‘zining ma’nosi nima?

Votum¹⁰ – lotincha, tilak, istak, xohish. Saylovchilar yoki vakillik organlarining ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilingan qarori yoki fikri.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyamiz boshqa Davlat Konstitutsiyalariga qiyosan yozilgan bo‘lib, unda o‘zbek tili so‘zlari bilan bir qatorda o‘zlashma so‘zlardan ham foydalanilgan. Biz bu maqolada ma’lum bir so‘zlarning ma’nolarini ifodalab o‘tdik. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini o‘rganishda qulay imkoniyatlarni yaratadi.

⁷ qomus.info saytidan

⁸ N. M. Mahmudov. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. 566-bet

⁹ N. M. Mahmudov. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. 578-bet

¹⁰ N. M. Mahmudov. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. 469-bet



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”. Toshkent. 2023.
2. A. Madvaliyev va boshqalar. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 5 tomli. Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2021.
3. N.M. Mahmudov. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. Toshkent. “Akademnashr”. 2013.
4. qomus.info
5. constitution.oz
6. savodxon.uz